Ma'muriy boshqaruv maktabi	A. Fayol, L.Urvik, Dj. Muni, G.Gant	mehnatni rejalashtirish, funksiyalarni muvofiqlashtirish, nazorat va yetakchilik nazariyasi
Byurokrat tashkilot maktabi	M. Veber, R. Merton	maqsadga erishish yo'llari, ishning aniq tavsiflari, qoidalar va tartiblarni ishlab chiqish
Insoniy munosabatlar maktabi	G. Myunsterberg, M.Follet, E. Meyo	xodimni ijtimoiy rivojlanishi
Bixevioristik maktabi	A. Maslou, D.Makgregor, F. Gersberg, R.Laykert	xodimni ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish muammolarini hal etish
Resurslarni boshqarish maktabi	M. Armstrong, E. Louler, Dj. Pfeffer	xodim tashkilotning investitsiviy resursi va alohida iqtisodiy qiymati
Empirik boshqaruv maktabi	P. Druker, R. Daft, A.Chandler	xodimga jismoniy va aqliy mehnatning yaratuvchisi va kapital sifatida qarash
Yangi boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv	nazariyalar shakllanmoqda	bozor mexanizmlari ustuvor, samaradorlik, boshqaruv, natijadorlikka yo'naltirilgan va markazlashmagan, hamkorlikdagi yondashuv
Jamoaviy qadriyatlar, raqamli boshqaruv va elektron hukumat	nazariyalar shakllanmoqda	qadriyatlar, legitimlik, adolatlilik, shaffoflik, xizmat ko'rsatish, boshqaruvga fuqarolarni jalb qilish

1-rasm. Mehnatni tashkil qilish va samaradorlikka erishish nazariyalarining evolyutsiyasi

Shuningdek, soʻnggi yillarda bu boradagi nazariya va yondashuvlarning evolyutsiyasi natijasida beshinchi maktab shakllanayotganligini koʻrish mumkin. Bular:

1) boshqaruvning yangi tizimi (1980-1990-yy.) – bozor iqtisodiyotiga asoslangan, natijadorlikka qaratilgan va markazlashmagan;

2) boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv – mavjud ijtimoiy muammolarni manfaatdor tomonlar bilan kelishgan holda hal qilishga qaratilgan;

3) jamoaviy qadriyatlar nazariyasi – samardorlik va natijadorlik qadriyatlari doirasida adolat, jamoaviy ehtiyojlar va legitimlik konsepsiyalarini eʼtiborga olish;

3) raqamli boshqaruv va elektron hukumat (2000-y. va h.q.) – raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida maʼmuriy jarayonlarning transformatsiyasini tadqiq qilishga qaratilgan.

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy maktablar vakillarining nazariyalarni quyidagi rivojlanish ketma-ketligidagi quyidagicha turkumlab keltirib oldik (1-rasm).

Ilmiy boshqaruv maktabi asoschisi, amerikalik olim Fredrik U.Teylor (1856-1915-yy.) oʻz tadqiqotlarida tashkilot va kadrlar menedjmenti boʻyicha quyidagi nazariyalarni ilgari suradi: ilmiy asoslangan ishlab chiqarish; kadrlarni ilmiy yondashuv asosida tanlab olish, malakasini oshirish va qayta tayyorlash; xodimlar va rahbarlar oʻrtasidagi hamkorlikning tashkillashtirilishi lozimligini asoslab bergan. Uning ilmiy qarashlari tashkilotlarda mehnatni tashkil qilishga bagʻishlangan boʻlib, yuqori samaradorlikka erishish uchun ilmiy yondashish zarurligini taʼkidlaydi va quyidagi prinsiplarni ilgari suradi:

1) tashkilotlarda xodimlarga sharoitlarni yaratish va ular farovonligi oshirish;

2) tashkilot rahbarlari butun jamoa manfaatlariga rioya qilinishini taʼminlashi va ulardagi javobgarlikni oshirish;

3) mehnatni ratsional tartibda tashkil qilish;

4) tizimni ilmiy boshqarish [7].

Genri Ford (1863-1947-yy.) F.Teylorning tadqiqotlarini davom ettirib, uning asosiy gʻoyalari amaliyotga joriy qildi. U ilmiy yondashuv asosida yuqori darajadagi ishlab chiqarishni koʻlami va vertikal jihatdan uygʻunlashtirgan holda yuqori daromad olish va past narxlardagi mahsulot ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻygan. Bunda boshqaruv xodimlarining malakasini oshirishga eʼtibor qaratib, boshqaruv va ishlab chiqarishda turli ilmiy yondashuvlarni qoʻllashga eʼtibor qaratgan. Mehnat faoliyatini olib boruvchi xodimlarning ijtimoiy sharoitini yaxshilash choralarini koʻrgan holda, oʻziga tegishli boʻlgan zavodda sotsiologik xizmatni tashkil qilgan. Uning asosiy gʻoyalari quyidagilarda oʻz aksini topgan: mehnat jarayonida keraksiz boʻlgan formallikdan voz kechish; har bir xodimga munosib haq toʻlash; mehnat anjomlarini toza-ozoda va yaxshi holatda saqlash, xodimlarni mehnat quroliga, jamoasiga va oʻziga hurmat nuqtayi nazardan qarashni oʻrgatish.

Ushbu maktabning yana bir namoyandasi G.Emerson (1853-1931-yy.) ishlab chiqarish natijadorligini oshirish va ragʻbatlantirishga, mehnat faoliyatini maʼlum standartlar asosida olib borilishini amaliyotga joriy qilgan boʻlib, samaradorlikka erishishning oʻn ikkita prinsiplarini ishlab chiqqan: 1) maqsad va vazifalarni aniq belgilab berilishi; 2) xatolarni tan olishi va sogʻlom fikr asosida ularning sabablari tahlil qilish; 3) kompetentli maslahat berish; 4) xizmatchilar faoliyatini aniq belgilash va nazorat qilish intizomi; 5) xodimlarga nisbatan adolatli munosabatda boʻlish; 6) tez, ishonchli, aniq, toʻliq va doimiy hisob yuritish; 7) tartib va ishni rejalashtirish; 8) meʼyor va standartlarni qoʻllash; 9) mehnat sharoitlarini normallashtirish; 10) mehnatni normallashtirish; 11) faoliyatning toʻgʻri va aniq bajarilishi uchun standartlarning yoʻriqnoma shaklida boʻlishi; 12) samaradorlikni ragʻbatlantirish [8].

Ilmiy boshqaruv maktabi asoschilaridan F.Gilbert (1868-1924-yy.) va L.Gilbertlar (1878-1972-yy.) oʻz tadqiqotlarida boshqaruvning ilmiy masalalari va prinsiplarini yoritishgan. Ular kadrlarni tanlash, joy-joyiga qoʻyish va tayyorlash, mehnatni oqilona tashkil qilish, jarayonga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, samaradorlikni oshirish, tashkilot faoliyatini rejalashtirish jarayoniga xodimlarning ishtirok etishlarini taʼminlash va unga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni yaxshilash metodlarini ishlab chiqishgan. Ilmiy boshqaruvning ijtimoiy jihatlarini tadqiq qilishib,

tashkilot va uning har bir a'zosi farovonligini ta'minlamasdan turib, barqarorlikka erisha olmasligi to'g'risidagi tezislarni ilgari surishgan [9].

Ilmiy boshqaruv maktabi vakillari xodimlarni boshqarish uslublari va yondashuvlariga tashqi muhitning ta'siri kuchayib, tashkilotdagi qoidalar va xatti-harakatlarni qayta ko'rib chiqish va o'zgartirishga majbur qilganligini ta'kidlashadi. Tashqi omillarning o'zgarishiga texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, mehnat faoliyatini tashkil etish, ishga va ishchiga bo'lgan munosabat, shuningdek, butun jamiyatga munosabat xizmatchilarni boshqarishga oid yondashuvlarini o'zgartirishga turtki berdi.

Ma'muriy boshqaruv maktabi asoschilaridan bo'lgan fransuz sotsiolog olimi Anri Fayol (1841-1925-yy.) menejmentning 3 ta asosiy g'oyasini ilgari surgan: 1) tashkilotlarda yakkaboshchilik zarurligini ta'kidlab, moslashuvchan bo'lishga va faoliyatni mas'uliyat asosida olib borishi zarur; 2) xizmatchilar o'zining mehnat faoliyatining ijtimoiy jihatlariga, shuningdek bajarilgan mehnatiga munosib ish haqi olishiga e'tibor qaratadi. Shu sababli u tashkilotlarda korporativ muhitni yaratish orqali, xodimlarning shaxsiy va tashkilot maqsadlariga erishishda muloqot va o'zaro aloqalarni mustahkamlanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydi; 3) tashkilotdagi adolat tushunchasiga e'tibor qaratib, tashkilot barcha masalalarni ehtirolarga berilmagan holda oqilona hal qilishi kerakligini ta'kidlab o'tadi.

Birinчилardan bo'lib rahbar tomonidan muvaffaqiyatli boshqarishni tashkil qilish bo'yicha shart-sharoitlar va sifatlarni aniqlab beradi, mehnatni tashkil qilish bo'yicha mumtoz byurokrtiyani yaratadi. A.Fayol tashkilotlardagi boshqaruv menejmentining 5 ta funksiyasini ko'rsatib o'tadi: 1) rejalashtirish; 2) tashkillashtirish; 3) boshqarish; 4) muvofiqlashtirish 5) nazorat.

U boshqaruv jarayoni aniq prinsiplarga asoslangan bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Tashkilotda xodimlarni boshqarishni tashkillashtirish bo'yicha 14 ta prinsiplarni ajratib ko'rsatadi: 1) mehnat taqsimoti; 2) hokimiyat va mas'uliyat; 3) intizom; 4) boshqaruv harakatlarining birligi; 5) yakka rahbarlik; 6) shaxsiy manfaatlarining umumiy maqsadga bo'ysundirilganligi; 7) rag'batlantirish; 8) markazlashtirish; 9) iyerarxiya; 10) tartib; 11) adolatlilik; 12) xodimlar barqarorligini ta'minlash (kadrlar qo'nimsizligi oldini olish); 13) tashabbuskorlik; 14) jamoa birligi [10].

A.Fayol asos solgan ma'muriy tadqiqotlar maktabi vakillari Djems Muni va Allen Reyliar o'z asarlarida samarali tashkilot haqida so'z yuritib, uni mantiqiy jihatdan bir-biriga aloqador va qarama-qarshi bo'lmagan rasmiy prinsiplarga asoslangan tizim sifatida baholashadi. Tashkilot bu – umumiy maqsadga erishish uchun insonlarning bir jamoaga birlashgan shakli. Umumiy maqsadga erishish bir-birini tushunishni anglatadi. Shu sababli tashkilot rahbarlarining asosiy vazifasi jamoada qulay muhitni yaratish va barcha xodimlarning kuch-quvvatini shu maqsadga erishishga yo'naltirishdan iborat bo'lishi kerakligini asoslab berishgan [11].

Nemis olimi M.Veber (1864-1920-yy.) sotsiologlar alohida shaxsning xatti-harakatlari anglash orqali jamoalarni, guruhlarni tushunish mumkinligini ta'kidlagan. Olim tomonidan ko'rib chiqilgan individual xulq-atvor modelini o'rganish orqali xarizmatik (xarizmatik sifatlarga ega bo'lgan rahbar), an'anaviy (tashkilot rahbariga bo'ysunish) va ideal (byurokratik turdagi tashkilot hokimiyatning maxsus taqsimlanishiga asoslanadi, uning asosida bilim, tajriba va ma'muriy ko'nikmalar yotadi) liderlik turlarini ajratib ko'rsatgan [12].

Uning fanga kiritgan asosiy nazariyalaridan biri ideal byurokrtiyaning asosiy prinsiplari bo'lib, ular quyidagilar: ixtisoslashgan maxsus rolga ega bo'lishi; xizmatiga munosib ravishda ishga qabul qilish; xizmatga kirish, lavozim pog'onalarida o'sish va boshqa joyga o'tkazishda yagona prinsipga rioya qilish; ish haqining tarkibiy o'zgarib borishiga asoslangan keryera tizimi; iyerarxiya, javobgarlik va hisobdorlik; rasmiy xatti-harakatlarning qat'iy intizom va nazorat qoidalariga bo'ysundirish; abstrakt qoidalarning ustuvorligi; hokimiyatning shaxsga bog'lanib qolmasligi, ya'ni mansabdor shaxs o'zi bilan birga lavozim olib kelmasligi. M.Veber davlat xizmatining siyosiy hukumatdan muhim farqli jihatlarini ajratib ko'rsatgan. Uning fikriga ko'ra, siyosatchilar va mansabdor shaxslar davlat boshqaruvi tizimida har xil funksiyalarni amalga oshiradi hamda turli huquqiy va ijtimoiy statusga ega bo'lishadi [13]. M.Veber tomonidan davlat xizmatining siyosiy hukumatdan ajratib ko'rsatgan farqli jihatlarini quyidagi jadvalda ko'rsatilgan (1-jadval).

Davlat xizmatining siyosiy hukumatdan farqli jihatlari

Farqlovchi mezonlar	Siyosatchilar	Davlat xizmatchilari
Hokimiyat manbai	Xalq	Siyosiy hokimiyat elitasi
Mandat mohiyati	Birlamchi (saylovlar, xalq vakillari orqali)	Ikkilamchi (lavozimga tayinlash)
Faoliyat sohasi	Jamiyatni rivojlantirish siyosatini ishlab chiqish	Siyosatni amalga oshirish
Nazorat shakli	Jamoatchilik asosida	Ma'muriy asosda
Baholash mezonlari	Saylovchilarning xohishiga mos kelish	Qonun va qoidalar talablariga mos kelishi
Ta'sir metodlari	Siyosiy	Ma'muriy

Ma'muriy boshqaruv maktabining yana bir vakili amerikalik olim Alfred P. Sloun (1875-1966-yy.) tashkilotda to'g'ri boshqaruvni yo'lga qo'yish orqali rivojlanishni muvofiqlashtirishga va markazlashmagan boshqaruv tizimiga ustuvor ahamiyat bergan. Natijada o'z tadqiqotlarida «markazlashmagan boshqaruv tizimi va hokimiyat vakolatlari samarali taqsimlash konsepsiyasi»ni ilgari surgan [14].

Insoniy munosabatlar (yoki neoklassik) va xulq-atvor maktabi asoschisi M.P.Follet (1863-1933-yy.) tashkilotda konfliktli muammolarni tadqiq qilish va ularni hal qilish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, vakolatlarni taqsimlash, manfaatlar garmoniyasi, xodimlar vakillarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishlarida ishtirok etish, tashkilot insonlar jamoasi va ularning o'zaro hamkorligi asosida tashkil topishi borasidagi nazariyalarni ilgari suradi. U tashkilotda vakolatlarini taqsimlash orqali, xodimlarga o'z vazifalarini bajarish mas'uliyatini yuklaydi. M.Follet vakolatlarini taqsimlashni ikkita jarayon sifatida ko'radi: birinchisi, quyi darajadagi boshqaruvda ma'muriy va muvofiqlashtirish faoliyatini yuqoridan taqsimlash; ikkinchisi, yuqori darajadagi ma'muriyat quyi bo'g'ingga u yoki bu harakatlarni amalga oshirish huquqini beradi [15].

Amerikalik sotsiolog va psixolog olim E.Meyo (1880-1949-yy.) «insoniy munosabatlar» nazariyasini yaratish davomida quyidagilarni maqsad qilib qo'ygan: insonning mehnatga bo'lgan motivatsiyasi darajasini oshirish; mehnat faoliyatida yangiliklarni kiritishi uchun psixologik jihatdan tayyorlash; boshqaruv va tashkiliy qarorlar sifatini yaxshilash; xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni va axloqiy sifatlarini rivojlantirish; xodimning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish [16]. E.Meyo tashkilotlarda samaradorlikni oshirishni obyektiv va subyektiv omillarini ajratib ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, tashkilotdagi shart-sharoit, mehnatni tashkillashtirish va ish haqi obyektiv omillar hisoblanadi. Subyektiv omillarga esa, guruhlarining shaxs xulq-atvoriga ta'siri, o'zaro munosabatlar, mehnat faoliyati jarayonida insonlarning motivatsiyasi va qadriyatlarini, guruhlarining faoliyat ko'rsatish mexnazimlari, konfliktlar va hamkorlik, kommunikativ to'siqlar va boshqalarni kiritgan. U boshqaruvda sotsiologiya va psixologiya fanlarining metodlarini qo'llash bo'yicha yangi yo'nalishni ochib bergan. Olim insonlar mehnat faoliyatining ijtimoiy va psixologik jihatlarini boshqaruvchi shaxslar asosiy e'tiborni jamoadagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal qilish va shu orqali jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga e'tibor qaratishi kerak, deb hisoblaydi [17].

Ushbu maktab g'oyalarining rivojlanishiga amerikalik olim Chester Barnard (1886-1961-yy.) o'zining hissasini qo'shgan. Xususan, u tashkilotning 2 xil turini ajratib ko'rsatadi: rasmiy va norasmiy. Rasmiy tashkilot quyidagi hollarda, ya'ni insonlarning bir-biri bilan muloqotga bo'lgan

intilishi natijasida; hamkorlikda mehnat qilishni anglagan insonlarning xohishi asosida va umumiy maqsad asosida shakllanadi. Uning fikriga ko'ra, norasmiy tashkilot shaxsiy aloqalar va hamkorlik majmuasi asosidagi insonlar guruhi deb biladi, ular umumiy maqsadga ega bo'lmaydi.

Tashkilotda markaziy o'rinni rahbar egallaydi, uning tashkiliy axloqqa ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab, uning funksiyalarini ajratib ko'rsatadi: strategik maqsadlarni aniqlab olish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, aloqalar tizimini ishlab chiqish; funksiyalar asosida boshqaruv tizimining tarkibiy tuzilishini ishlab ishlab chiqish [18]. Amerikalik olim D.Mak-Gregor (1906-1964-yy.) ham ushbu maktab davomchilaridan bo'lib, "X" va "Y" nazariyalarining asoschisi hisoblanadi. "X" nazariyasi boshqaruvning an'anaviy yondashuvini aks ettiradi va unga xos bo'lgan quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatadi:

oddiy inson mehnatga nisbatan ichki yoqimsizlikni his qiladi va turli yo'llar bilan undan qochishga harakat qiladi (dangasalik);

odatdagi inson mas'uliyatdan qochadi va bo'ysunuvchilikni afzal ko'radi (ishlashni yaxshi ko'rmaydi);

odatdagi inson katta ambitsiyalarga ega bo'lmaydi, uning asosiy xususiyati himoyaga muhtojlik sanaladi (tashabbus ko'rsatmaydi).

"Y" nazariyasi asosida xodimni inson sifatida qabul qilish va ma'lum qobiliyatlarga ega bo'lishini nazarda tutadi:

insonning jismoniy kuchi va aqliy salohiyatini mehnatga sarflashi tabiiy jarayon hisoblanadi (mehnat qilishni yaxshi ko'radi);

faoliyat jarayonida inson o'zini o'zi nazorat qiladi va boshqaradi (yaxshi rahbar va tarbiyachi);

oddiy inson har xil sharoitlarda nafaqat javobgarlikni o'z bo'yniga oladi, balki bunday vaziyatda o'z qobiliyatlarini namoyon qilishga intiladi (o'zgarishlarni ijobiy qabul qiladi, yangiliklarga tez moslashadi, tashabbus ko'rsatadi) [19].

Amerikalik olim U.Ouchi (1943-y.t.) 1981 yilda D.Mak-Gregorning "X" va "Y" va Yaponiyaning "Y" nazariyalarini tadqiq qilishi natijasida o'zining "Z" nazariyasini ilgari surdi. Ushbu nazariya amerika va yaponiya boshqaruv tizimining ma'lum bir xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu nazariyaga xos xususiyatlar quyidagilar: o'zaro ishonch, tashkilot va xodim o'rtasidagi mustahkam aloqalar, xodimning tashkilotga tegishli ekanligini his qilishi va qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki; tashkilotda kadrlar qo'nimsizligini oldini olish uchun xizmatchilarni uzoq muddatga yollash, xodimlarni fikrini o'rgangan holda muhim qarorlarni hamkorlikda qabul qilish, tashkilot xodimlarning farovonligini ta'minlash to'g'risida qayg'urishi lozim [20].

Ushbu maktabning yana bir namoyandasi A.Maslou (1908-1970-yy.) ning motivatsiya nazariyasi bo'lib, u ehtiyojlar iyerarxiyasining modeliga asoslanadi. Uning fikriga ko'ra, insonning eng yuqori ehtiyoji uni qobiliyati va talanti orqali o'zini namoyon etishga undaydi. U inson ehtiyojlarini 5 ta toifaga bo'ladi: asosiy fiziologik ehtiyojlar, himoyaga (xavfsizlikka) ehtiyoji, ijtimoiy jamoaga ehtiyoji; hurmat qilish va o'zini o'zi hurmat qilishga ehtiyoji; o'zini namoyon etishga bo'lgan ehtiyoji.

Olimning fikriga ko'ra, aniq bir insonni motivatsiyalash uchun rahbar uning birlamchi ehtiyojlarini qondirishga e'tibor qaratish va shu orqali tashkilotning maqsadlariga erishishni nazarda tutadi. Bunday vaziyatda rahbar tomonidan xodimni qanday rag'batlantirishni (munosib ish haqi, mehnat xavfsizligini ta'minlash, ish o'rnining barqarorligi va boshqalar) va birlamchi individual ehtiyojlarini bilishi lozim bo'ladi [21].

Frederik Gersberg (1923-2000-y.y.) insonlarning o'z mehnatidan qoniqishi va qoniqmasligi omillarini aniqlagan. Mehnatdan qoniqishning asosiy omillari (motivatsion omillar) sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: maqsadga erishish va mehnati natijalarining tan olinishi; mehnatga va vazifani bajarishga bo'lgan ishtiyoqi; javobgarlik darajasi; xizmat lavozimi pog'onalarida o'sib borishi; professional va ijodiy rivojlanish imkoniyati. Mehnatdan qoniqmaslik (kontekst yoki gigiyenik omillar) omillari quyidagilar: boshqarish usuli; tashkilot va ma'muriyat siyosati; mahnat shart-sharoitlari; ish joyidagi shaxsiy munosabatlar; ish haqi; ish barqarorligiga bo'lgan ishonchsizlik; ishning shaxsiy hayotga ta'siri.

Bu yerda shuni e'tiborga olish lozimki, har bir rahbar turli ko'rinishdagi rag'batlantirish vositalarini differensial tartibda ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Shu bilan birga, gigiyenik omillar bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirmasdan, boshqa turdagi rag'batlantirishlarni qo'llash har doim kutilgan natijani bermasligi mumkin [22].

Amerikalik sotsiolog olim R.Laykert (1903-1981-yy.) mehnatli samarali tashkil qilish modelini ishlab chiqadi va tashkilot uzoq muddatli samaradorligini belgilab beruvchi uchta turini ajratib ko'rsatadi:

sabab o'zgarishlari sifatida – tashkilot ma'muriyati nazoratida bo'lgan ichki tashkiliy omillar, ya'ni tashkilotning rasmiy tarkibiy tuzilishi, iqtisodiy strategiyasi va ijtimoiy siyosati, xodimlarning kasbiy va malakaviy tarkibi va boshqalar;

oraliq o'zgarishlari sifatida – tashkilotdagi inson resurslarini ko'rsatib o'tadi. Bunda insonlarning qobiliyati va mehnatga bo'lgan munosabati, tashkiliy muhit, qarorlar qabul qilish metodlari, rahbariyatga bo'lgan ishonchi darajasi, loyalligi, rag'batlantirish yo'llari, faoliyatni motivatsiyalash va boshqalar;

natija o'zgarishlari sifatida – xodimlar sa'y-harakatining yakuniy natijasini ifodalaydi, ya'ni mehnat unumdorligi, ishlab chiqarishning o'sishi yoki pasayishi, daromadlar dinamikasi, mahsulotlar bilan iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish va boshqalar [23].

XULOSA

Kelajakda rivojlanishni va yorqin istiqbolni o'z oldiga qo'ygan har qanday tashkilot zamonaviy talablarga javob bera oladigan davlat xizmatchilarini jalb etishga bo'lgan istagi oshib boradi. Chunki, zamonaviy davlat xizmatchilariga bo'lgan talablarning o'sishiga jahondagi globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlari ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, o'tgan asr o'rtalarida, tashkilotlarda xodimlar bilan o'zaro aloqalarni ma'muriy tartibga solish, rahbarlar va xodimlar o'rtasida qarama-qarshi munosabatlar o'rniga bugungi kunda tanlash, ish joyiga moslashish, faoliyatini baholash, salohiyatini oshirish, shaxsiy rivojlantirish, rag'batlantirish, karyerani rejalashtirishga qaratilgan muhit shakllandi. Natijada tashkilotlarda ish usullari bilan birga xodimlarning o'zlari ham o'zgardi. Davlat xizmatida xodimlarni boshqarishning takomillashtirilishi ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni ta'minlashga, xodimlar salohiyatini uzluksiz rivojlantirish, jamoada ahillikni birlashtirib sog'lom muhitni shakllantira oladigan mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda davlat xizmatida inson resurslarining samarali boshqaruvini yo'lga qo'yish orqali davlat tashkilotlari faoliyati natijadorligiga va islohotlarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda davlat siyosatining asosi mezon bo'lgan mamlakatimizda insonga e'tibor va uni qadrini ulug'lashga har bir tashkilotning alohida o'rni bo'lishi lozim.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ilmiy boshqaruv va munosabatlar nazariyalari davlat xizmati va kadrlar tanlashni tashkil qilishda yangicha standartlashtirish va tasniflashga asos bo'ldi. Bunda davlat xizmatchilarining faoliyatini takomillashtirish sohasidagi siyosatni samarali ishlab chiqish va amalga oshirish uchun strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan barcha darajadagi o'rganish obyektlari hisobga olish, ustuvor yo'nalishlarni kelishish hamda unga ko'p tomonlama va kompleks yondashish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. David E. Guest «Organizational psychology and human resource management: Towards a European approach», *Journal European Work and Organizational Psychologist*. Volume 4, 1994 - Issue 3. – p. 251-270. // <https://doi.org/10.1080/13594329408410488>
2. Социология управления. Теоретико-прикладной толковый словарь / Отв. ред. А.В. Тихонов. – М.: Издательство URSS, 2014. – С. 39.
3. Байкеева С.Е. Теоритико-методологические основы исследования проблем кадрового обеспечения государственной службы. *Вестник Санкт-Петербургского университета МВД РФ*. №3 (39). 2008. – С. 9-10.

4. Гоббс Т. Сочинения в двух томах. Том 1. // Пер. с лат. и англ.; сост., ред. изд., авт. вступ. ст. и примеч. В.В. Соколов. – М.: Мысль, 1989. 622с.
5. Robert K. Merton. «Bureaucratic Structure and Personality». *Social Forces*, 1940, 18, – pp. 500-508.
6. Classical Schools of Management // <https://www.cliffsnotes.com/study-guides/principles-of-management/the-evolution-of-management-thought/classical-schools-of-management>.
7. Taylor F.W. *The Principles of Scientific Management*. eBook. Most recently updated: November 4, 2011 // <https://www.gutenberg.org/cache/epub/6435/pg6435-images.html>
8. Эмерсон Г. Двенадцать принципов производительности. – Москва: Экономика, 1992. – 224с.
9. Gilbreth F.B. *Primer of Scientific Management*. Adamant Media Corporation, 1999. – 107 p.
10. Henry Fayol. *General and Industrial Management*. Martino Publishing, 2013.– P.142.//[https:// books.google. com. co/books? id= Wfp5DQAAQBAJ &printsec = frontcover&hl=es#v=onepage&q&f=false](https://books.google.com.co/books?id=Wfp5DQAAQBAJ&printsec=frontcover&hl=es#v=onepage&q&f=false)
11. Mooney J.D., Reiley, Alan C. *The principles of organization*, by James D.Mooney and Alan C. Riley. New York, London, Harper & Brothers. 1939. 223.
12. Max Weber, «Ideal Bureaucracy» in *The Theory of Social and Economic Organizations* (ed. & trans. Talcott Parsons & Alexander H. Henderson). (New York: Oxford University Press, 1922/1947)
13. Вебер М. Политика как призвание и профессия // *Избранные произведения*. – М., 1990. – С. 665-666.
14. Альфред С. Мои годы в General Motors. Перевод: А.Врублевский, Н.Довгулевич, В.Карпюк, Ю.Левчук, А.Козлов, П.Шер. 2018. Copyright © 1963 by Alfred P. Sloan, Jr. «Издательство «Эксмо» // <https://www.litres.ru/book/alfred-sloan/moi-gody-v-general-motors-28738576/chitat-onlayn/>
15. Mary Parker Follett: *Prophet of Management*. Boston, 1995. – P. 276.
16. Рогова Е.И. *Этика и психология профессиональной деятельности*. 3-изд., пер. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2019. – С. 30-31.
17. Mayo E. *The Human Problems of an Industrial Civilization*. Boston, MA: Harvard University Press, 2003. 204 p. DOI: <https://doi.org/10.4324/9780203487273>
18. Барнард Ч. *Функции руководителя: власть, стимулы и ценности в организации*. 1968. Перевод В.Кошкина. 2009. Издательство «Социум» 441с. // <https://www.litres.ru/book/chester-barnard/funkcii-rukovoditelya-vlast-stimuly-i-cennosti-v-organizac-3953225/chitat-onlayn/>
19. Douglas M. McGregor. *The Human Side of Enterprise* // <https://mitsloan.mit.edu/institute-work-and-employment-research/douglas-m-mcgregor>.
20. William Ouchi's *Theory Z* // <https://www.geeksforsgeeks.org/william-ouchis-theory-z/>
21. Маслоу А. *Мотивация и личность*. 3-е изд. Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2019. – 400 с.
22. Herzberg's Two-Factor Theory in Project Management // <https://www.wrike.com/blog/what-is-herzbergs-two-factor-theory/>
23. Likert's management system and leadership // <https://jgdb.com/business/management/organizational-structure/4-likert-s-management-system-and-leadership>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000